Baratova Nargiza Axmadjonovna

NamDU, Rus tili va adabiyoti kafedra o'qituvchisi

"QANOTLI SO'ZLAR" VA ULARNING BOSHQA BIRLIKLARDAN FARQI

Annotatsiya. Mazkur maqolada barcha tillarda bir xilda jaranglovchi, millatdan millatga, elatdan elatga ko'chib yuruvchi qanotli so'zlar, ularning o'xshash boshqa birliklardan farqi haqida so'z ketadi. Qiyosiy tahlil asosida farqli hamda mushtarak jihatlar aniqlangan.

Kalit so'zlar: qanotli so'zlar, iqtiboslar, frazeologizmlar, tasviriy ifoda, kollokatsiya.

"WINGED WORDS" AND THEIR DIFFERENCES FROM OTHER UNITS

Annotation. This article discusses winged words that sound the same in all languages, move from nation to nation, from people to people, and their differences from other similar units. Based on a comparative analysis, differences and common features were identified.

Keywords: winged words, quotes, phraseological units, figurative expression, collocation.

«КРЫЛАТЫЕ СЛОВА» И ИХ ОТЛИЧИЯ ОТ ДРУГИХ ЯЗЫКОВЫХ ЕДИНИЦ

Аннотация. В данной статье рассматриваются крылатые слова, которые звучат одинаково во всех языках, передаются из страны в страну, от народа к народу, и их отличия от других подобных единиц. На основе сравнительного анализа были выявлены различия и общие черты.

Ключевые слова: крылатые слова, цитаты, фразеологические единицы, образное выражение, коллокация.

Kirish. Tilshunoslikda sintaktik jihatdan qolip holatiga kelib qolgan, barqaror birliklar ko'p. Jumladan, murakkab so'z birikmasi, frazeologik birlik, frazeologik butunlik, frazeologik chatishma, tasviriy ifoda, iqtibos, kollokatsiyalar va qanotli so'zlar shular jumlasidandir.

Adabiyotlar tahlili. Frazeologiya masalalari, xususan, qanotli iboralarning shakllanishi, qo'llanilishi va milliy-madaniy xususiyatlarini o'rganish bo'yicha dunyo tilshunosligida ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan. O'zbek tilshunosligida A. Madvaliyev, M. Mirtojiyev, A. Hojiyev, Sh.Rahmatullayev kabi olimlarning asarlarida frazeologizmlar nazariyasi, ularning leksik-semantik xususiyatlari hamda xalq og'zaki ijodi bilan bog'liqligi chuqur yoritilgan[1]. Xususan,

[1] Madvaliyev A. Frazeologiya va uning tadqiqi. – Toshkent: Fan, 1995; Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1982; Mirtojiyev M. O'zbek tilining frazeologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008.

o‘zbek frazeologiyasini tizimli o‘rganishda milliymadaniy kontekst alohida e’tiborga olingan. Ingliz tilshunosligida esa frazeologizmlarni o‘rganishda R. Moon, A.V. Kunin, J. Seidl va W. McMordie kabi olimlar tomonidan yaratilgan ilmiy asarlar muhim ahamiyat kasb etadi[2].

Ularning tadqiqotlarida ingliz tilidagi frazeologik birliklarning strukturaviy xususiyatlari, semantik turlari hamda nutqiy qo‘llanilishi keng tahlil qilingan. Shuningdek, ingliz tilidagi qanotli iboralarning ko‘pchiligi diniy manbalar, adabiy asarlar, xalq maqollari va afsonalardan olingani ta’kidlanadi.

Muhokama va natijalar. Qanotli so’zlar shaklan va mazmunan turlicha ko’rinishda bo’lib, mazkur holat ularning o’xshash birliklar bilan qiyoslash muammosini keltirib chiqaradi. Jumladan, murakkab so‘z birikmasi, frazeologik birlik, frazeologik butunlik, frazeologik chatishma, tasviriy ifoda, iqtibos, kollokatsiyalar shular jumlasidandir.

Murakkab so‘z birikmasi – “komponentlaridan biri birdan ortiq so‘z bilan ifodalangan birikma”[3] bo‘lib, leksik birliklarning nutqiy vaziyatda grammatik va ma’noviy birikuvini ifodalab, so‘zlar o‘z ma’nosini saqlab qolishi, ma’no ko‘chish holatlari kam kuzatilishi singari belgilarga ega. Jumladan, oliy ma’lumotli yigit, paxta gulli chinni piyola kabilar shular jumlasidandir.

Frazeologik birlik – tuzilishiga ko‘ra so‘z birikmasiga, gapga teng, semantik jihatdan bir butun, umumlashgan ma’no anglatadigan, nutq jarayonida yaratilmay, nutqqa tayyor holda kiritiladigan lug‘aviy birlik [4]dir. Frazeologik birlikning uch turi mavjud:

1) frazeologik qo‘shilma – tarkibidagi so‘zlarning lyeksik ma’nosi saqlanadigan, biri ikkinchisining bog‘li ma’nosini reallashtiruvchi nutqiy matn vazifasini o‘taydigan sintagma;

2) frazeologik butunlik – tarkibidagi so‘zlarning ma’nolari asosida izohlash mumkin bo‘lgan fra- zeologik birliklar;

3) frazeologik chatishma – arkibidagi so‘zlarning ma’nosidan kelib chiqmaydigan, hatto unga zid ma’no ifodalaydigan frazeologik birliklar: oyog‘ini qo‘liga olmoq kabi.

Tasviriy ifodalar – ma’no jihatidan bir so‘zga teng kelib, qismlaridan biri albatta ko‘chma ma’noda bo‘lishi, ot turkumiga mansubligi va uslubiy xoslanganligi bilan ajralib turadi: *oq oltin, qanotli do‘stlar, zango- ri ekran* kabi. I.Umirov mazkur birliklarni leksik parafraza,

[2] Kunin A.V. English Phraseology. – Moscow: Vysshaya Shkola, 1996; Moon R. Fixed Expressions and Idioms in English: A Corpus-Based Approach. – Oxford: Clarendon Press, 1998; Seidl J., McMordie W. English Idioms and How to Use Them. – Oxford: Oxford University Press, 1988.

[3] Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2002. – B.68

[4] Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2002. – B.124

frazeologik parafraza, sintaktik parafraza, logik parafraza, sof va kontekstual parafraza kabi turlarga ajratadi[5].

Kollokasiyalar − sintaktik va syemantik jihatdan bir butun so‘zlar birikmasini bildirib, uning tarkibiy qismlaridan biri mazmuniy tayanch vazifasini bajaradi, ikkinchi so‘z esa shuning kuchli valyentligi asosida birikadi. Kollokasiyalar ayrim o‘rinlarda barqaror birikmalar yoki frazyeologik so‘z birikmalari, N- grammalar nomi bilan yuritilishi ko‘rsatiladi[6]. Kollokatsiyalar frazeologik qo‘shilma terminiga mos keladi[7]. Tuzilishi va semantik butunlik ifoda- lashiga ko‘ra kollokatsiyalar tasviriy ifodalarga birmuncha mos keladi. Har ikkalasida 1-unsur o‘z ma’nosida, 2-unsur biroz ko‘chma ma’noda ishlatiladi.

Kollokatsiyalar safiga tarkibli toponim, antroponim kabilar kiradiki, ular turg‘un birga qo‘llanishi bilan ajralib turadi [13]: Sulaymon tog‘i, Islom Karimov, Bibixonim madrasasi kabi.

Kollokatsiyalarda o‘z ma’nosida qo‘llangan so‘zlar ochqich qism yoki erkin qism deyiladi: ta’sir ko‘rsatmoq, chuqur afsus kabi. Ma’nosiga e’tibor berilmagan holda ixtiyorsiz ravishda xotiraga saqlanadigan so‘z esa yordamchi qism hisoblanadi. Mazkur birliklarda so‘zlar tan- lanishi juda cheklangan bo‘lgani uchun, ularning uslubiy qo‘llanishi ham chegaralangan bo‘ladi.

Qanotli so‘zlar – nutqqa badiiy asarlardan kirib qolgan qisqa sitatalar, obrazli iboralar, afsonalar va badiiy asarlarda tavsiflangan, so‘ng xalq tilida ko‘chma ma’noda o‘zlashib ketgan obrazlarning nomlari, tarixiy shaxslar tomonidan aytilgan, qisqa, ixcham ta’riflardir[8].

Qanotli so‘zlar tarkib nuqtai nazaridan frazeologik birliklarga yaqin turadi, ular so‘z birikmasi, gap shaklida uchrashi mumkin.

Qanotli so‘zlar semantikasidagi muammolardan biri shuki, mazkur birlik qismlari denotativ yoki metaforik ma’noda ekanligini aniq bilib bo‘lmaydi. Madaniy jihatdan esa mazkur birlik turli madaniyatlarga qaysi ma’nosi bilan ko‘chirilganini aniqlash juda muhimdir.

Qanotli so‘zlar shaklan quyidagi holatlarda uchraydi:

Qanotli so‘zlar (krylatye slova) - bu ma'lum mualliflardan, adabiyotlardan yoki tarixiy voqealardan kelib chiqqan, barqaror, takrorlanadigan va semantik birliklar vazifasini bajaradigan,

[5] *Умиров И.Э.* Ўзбек тили парафразалари: филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1996. – 23 б.

[6] Wikipedia. The Free Encyclopedia: [Online]. URL: https://ru.wikipedia.org/wiki/коллокация_(лингвистика)

(Мурожаат этилган сана: 14.01.2022)

[7] Қўзиев У.Я. Ўзбек тилидаги мураккаб тузилишли бирликларнинг таснифи ва тавсифи масаласи // АДУ Илмий хабарнома. Гуманитар тадқиқотлар. 2022/3 (63). – Б.79-86.

[8] Muxtarova O.U. “Qanotli so’zlar” va umuminsoniy xususiyatlar bog’liqligi / “Umumiy filologiyaning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari. Andijon davlat chet tillar institute, 2024-yil 17-may. – B. 208-209.

o‘zgarmas, majoziy ifodalardir. Grammatik jihatdan ular qolipli iboralar yoki gaplar shaklida bo‘ladi.

Grammatik juhatdan o‘zgarmas: qanotli so‘zlar nutq vaziyatida yaratilmaydi, balki tayyor, barqaror birliklar sifatida ishlatiladi. Ularning strukturaviy yaxlitligi saqlanib qoladi, bu ularga nutqda o‘zgarmas iboralar sifatida ishlashga imkon beradi. Shaklan "gapga o‘xshash frazeologik birliklar" toifasiga kiradi. Ba'zilar, masalan, ishoralar, nominal va taklif frazemalari orasidagi "o‘tish periferiyasida" bo‘lishi mumkin. Grammatik jihatdan tuzilgan bo‘lsa-da, qanotli so‘zning ma'nosi ko‘pincha metaforik bo‘lib, faqat uning alohida so‘zlari yig'indisidan kelib chiqmaydi. Ularning grammatik tuzilishi ko‘pincha ularning kelib chiqishi bilan bog'liq. Qanotli so‘zlar murakkab vaziyatlarni umumlashtirish yoki madaniy/ijtimoiy g'oyalarni aks ettirish uchun samarali, ifodali vositalar bo‘lib xizmat qiladi, ko‘pincha ularning ixcham, "sayqallangan" shakli bilan ajralib turadi.

Aslida, qanotli so‘zlarning grammatik ko‘rinishi ularning adabiyot va til uchun ajralmas bo‘lgan barqaror, formulali va juda mazmunli birliklar sifatidagi rolini ta'kidlaydi.

Qanotli so‘zlarni aforizmlar bilan taqqoslasak quyidagilar ko‘zga tashlanadi: aforizmlar doimo o‘z asl ma’nosida qo‘llansa, qanotli so‘zlar ko‘chma ma’noda ham qo‘llanadi. Aforizmlar tushunarli, qanotli so‘zlar bo‘lsa paydo bo‘lgan vaziyat orqali belgilanadi, aks holda uni tushunish qiyin. Demak, frazeologik birliklar, aforizmlar va qanotli so‘zlarni ko‘p jihatlar o‘zaro birlashtirsa-da, ularni bir-birlaridan keskin farqlovchi jihatlar ham mavjud.

1. So‘z birikmasi holatida: moslashuvli birikma: Potyomkin qishloqlari, Hulaguning iti, Axillesning tovoni; bitishuvli birikma: qog’oz yo‘lbars, quruq qonun, yo‘qotilgan avlod, irkit o‘rdakcha.

2. So‘z qo‘shilmasi holatida: Qilich va qalqon, Yer va suv, non va ziyofat kabi.

3. Gap shaklida: Nog’oramga o‘ynaysanlar, Keldim, ko‘rdim, oldim kabi.

Xulosa. Umuman olganda qanotli so‘zlar tuzilishi jihatdan so‘z birikmasi va gapga, ma’no ko‘chishi jihatidan frazeologizmga, muallifi aniqligi nuqtai nazaridan sitatalarga o‘xshab ketadi. Biroq muayyan vaziyat uchun quyma tarzda qo‘llanishi, metaforik ma’noga egaligi, shuningdek, turli madaniyatlarda mazmunan takrorlanishi bilan boshqa birliklardan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2002. – 280 b.
2. Kunin A.V. English Phraseology. – Moscow: Vysshaya Shkola, 1996.
3. Madvaliyev A. Frazeologiya va uning tadqiqi. – Toshkent: Fan, 1995.
4. Mirtojiyev M. O‘zbek tilining frazeologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008.
5. Moon R. Fixed Expressions and Idioms in English: A Corpus-Based Approach. – Oxford: Clarendon Press, 1998.
6. Muxtarova O.U. “Qanotli so‘zlar” va umuminsoniy xususiyatlar bog’liqligi / “Umumiy filologiyaning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari. Andijon davlat chet tillar institute, 2024-yil 17-may. – B. 208-209.
7. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1982.

8. Seidl J., McMordie W. English Idioms and How to Use Them. – Oxford: Oxford University Press, 1988.
9. Wikipedia. The Free Encyclopedia: [Online]. URL: https://ru.wikipedia.org/wiki/kollokatsiya_ (lingvistika) (Murojaat etilgan sana: 14.01.2022)
10. Qo‘ziyev U.Ya. O‘zbek tilidagi murakkab tuzilishli birliklarning tasnifi va tavsifi masalasi // ADU Ilmiy xabarnoma. Gumanitar tadqiqotlar. 2022/3 (63). – B.79-86.
11. Umirov I.E. O‘zbyek tili parafrazalari: filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkyent, 1996. – 23 b.